

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA LINGVOMADANIY OMILLARNING
TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI
(yapon talabalari misolida)**

Shasaidova Zilola Axbor qizi

Tashkent International University of education xalqaro universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

Abstract: *This article examines the role, importance, and effectiveness of linguistic and cultural factors in the educational process of teaching the Uzbek language to foreign students. The role and interdependence of culture in language learning is interpreted as an important factor in the formation and development of students' communicative and cognitive competencies.*

Keywords: *language, culture, communicative competence, cognitive approach, foreign students, linguistic culture, linguistic and cultural methods, Uzbek language, foreign language.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль, значение и эффективность лингвистических и культурных факторов в образовательном процессе обучения узбекскому языку иностранных студентов. Роль и взаимозависимость культуры в изучении языка интерпретируются как важный фактор формирования и развития коммуникативных и познавательных компетенций студентов*

Ключевые слова: *язык, культура, коммуникативная компетенция, когнитивный подход, иностранные студенты, языковая культура, лингвистические и культурные методы, узбекский язык, иностранный язык.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chet ellik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda ta’lim jarayonida lingvomadaniy omillarning o‘rni, ahamiyati va samarasi yoritiladi. Til o‘rganishda madaniyatning o‘rni va uzviy bog‘liqligi talabalarning kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda muhim omil sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, kommunikativ kompetensiya, kognitiv yondashuv, chet ellik talabalar, lingvomadaniyat, lingvomadaniy metodlar, o‘zbek tili, chet tili.*

KIRISH

Ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda, madaniyatlararo muloqotga tayyor, mustaqil va teran fikrlovchi, kommunikativ jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalash – ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu muhim jarayonda til aloqa vositasi hisoblanib, millatlararo madaniyatlarni uzatuvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida muhim o'rin tutadi. Shu boisdan tilshunoslik, madaniyatshunoslik, jahon adabiyoti, zamonaviy pedagogika va filologiya fanlarida lingvomadaniy yondashuv alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim jarayonida talabalarning tilni samarali o'zlashtirishi, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tafakkurlarni anglashida lingvomadaniy omillar bevosita xizmat qiladi. Xususan, chet elliklarga o'zbek tilini o'qitishda lingvomadaniy komponentlar asosida ta'lim berish talabalarning nutqiy kompetensiyasi va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogika va filologiya fanlarida lingvomadaniy yondashuv asosida ta'lim berish yahshi samara ko'rsatib, ta'lim mazmuni va metodikasini yangilanishiga olib kelmoqda.

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida lingvomadaniy omillarning ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

1. Til va lingvomadaniyat tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari

Til – muloqot vositasi bo'lib, xalqning ijtimoiy hayoti va tarixiy tajribasini o'zida mujassamlashtirgan, madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Til orqali xalqning dunyoqarashi va milliy o'ziga xosligi namoyon bo'lganligi sabab til masalasi jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning “Har bir millatning borlig'i uning tili va adabiyoti bilandir” degan fikri tilning millat hayotidagi o'rnini yaqqol ifodalaydi. Milliy xalq maqollari, frazeologizmlar, metaforalar, matnlar va ramziy birliklar madaniy ma'no tashuvchi hamda madaniy ma'no yuklamasiga ega xalqning duyoqarashini aks ettiruvchi asosiy lingvistik birliklar hisoblanadi. Filologiya va pedagogika nuqtai nazaridan bunday birliklarni tahlil qilish talabalarning semantik va pragmatik tafakkurini rivojlantirishda, lingvomadaniyat ta'lim jarayoning mazmunini boyitib, ta'limni hayot va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'lash imkonini yaratadi.

Lingvomadaniyat atamasi tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari tutashgan nuqtada shakllangan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro chambarchas bog'liqligini, milliy mentalitet, a'nana va tafakkur tarzining tilda aks etishi, til orqali madaniyatni o'rganishni nazarda tutadi. U ilmiy manbalarda qayd etilishicha, lingvomadaniyatshunoslik fani negizida bo'lib, tilda aks etgan milliy o'ziga xoslikni tadqiq etib, til birliklari orqali milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy ongning

ifodasi hamda xalqning madaniy tajribasi dunyoqarashini ifodalovchi ilmiy yo‘nalish sifatida talqin qilinadi.

2. Pedagogika fanida lingvomadaniy yondashuvning ahamiyati

Lingvomadaniy yondashuv pedagogik nuqtai nazardan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, lingvomadaniy yondashuvda talaba individual shaxs va faol subyekt sifatida qaralib, talabaning shaxsiy qiziqishlari hamda tajribasi, milliy-madaniy qarashlari ta‘lim jarayonida hisobga olinib dars tashkillashtiriladi.

Lingvomadaniy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar:

- talabalarning milliy qadriyatlarga qiziqishlari va ijtimoiy faolligini oshiradi;
- tolerantlik va o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalaydi;
- milliy o‘zlikni va madaniy me‘rosni anglashni kuchaytiradi;
- ta‘lim jarayonida motivatsiya hamda interfaollikni oshiradi;

Pedagogik amaliyotda lingvomadaniy yondashuv interfaol metodlar, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar, madaniy matnlar bilan ishlash, milliy qadriyatlarni ko‘rgazmali qurollar, videotasmalar, sur‘atlar orqali ko‘rsatish hamda prezentatsiyalar orqali amalga oshirish ta‘lim samaradorligi sezilarli darajada oshiradi.

3. Lingvomadaniy omillarning kommunikativ kompetensiyaga ta‘siri va tadbiiq etishdagi muammolar

Kommunikativ kompetensiya tilni o‘rganish bilan birga, madaniy me‘yorlarni tushunish va ularga amal qilishni ham o‘z ichiga oladi. Lingvomadaniy omillar talabalarning nutqiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlari, nutqiy etiket va samarali muloqotni ta‘minlaydi. Xususan, chet tillarini o‘qitishda madaniy tafovutlarni hisobga olish, hurmat qilish va to‘g‘ri talqin etish muhim ahamiyatga ega.

Lingvomadaniy omillar:

- noto‘g‘ri muloqot va millatchilik holatlarini kamaytiradi;
- madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini oladi;
- talabalarning nutqiy moslashuvchanligini oshiradi;
- chet tilidagi adabiyotlar va chet el qadriyatlarini o‘rganishga qiziqishni oshiradi;

Yuqoridagi holatlar chet tillarini o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘lim jarayonida lingvomadaniy yondashuvni tadbiiq etishda bir qator muammolarga duch kelish mumkin:

- o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi va mamlakatlar madaniyati va qadriyatlarini yetarli darajada bilmasligi;
- darsliklarda madaniy materiallarning cheklanganligi;

- vaqtning noto'g'ri taqsimlanishi va baholash tizimidagi muammolar;

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish, ta'lim resurslarini boyitish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish orqali amalga oshirish mumkin.

4. Yapon talabariga o'zbek tilini o'qitishda lingvomadaniy materiallardan foydalanish metodikasi

Bizga ma'lumki yapon xalqi dunyodagi eng intizomli, mehnatkash, tartibsevar va eng asosiysi izlanuvchan va bilimga chanqoq xalqlardan biri hisoblanadi. Ularda jamiyatning asosi – qoidaga bo'ysunish va bajarayotgan ishini shunchaki emas, mukammal bajarishga intilish, kattalarga, ustozlarga va jamiyatga nisbatan chuqur hurmat bildirish, qadimiy urf-odatlarini saqlash madaniyati hisoblanadi. Yaponiyaliklar o'zbek tilini va madaniyatini o'rganishga katta qiziqish bildirishadi. Shuning uchun yaponiyalik talabarga o'zbek tilini o'rgatish katta pedagogik mahorat va samarali pedagogik metodlarni qo'llash talab etadi. Yaponiyalik talabalarga o'zbek tilini o'rgatish bilan bir qatorda, o'zbek milliy qadriyatlari, urf-odatlari va milliy me'rosimizni chiroyli va qiziqarli tarzda o'rgatish tilni yahshi o'zlashtirish va darsga bo'lgan qiziqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvomadaniy metodlar – bu o'rganayotgan tilni o'sha xalqning madaniyati, qadriyatlari va mentaliteti bilan birga o'rganish va o'rgatish usuli hisoblanib, til va madaniyat ajralmas birlik sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonida lingvomadaniy materiallardan foydalanish metodik jihatdan puxta va kreativ rejalashtirilishi lozim. Lingvomadaniy materiallardan samarali foydalanish uchun quyidagi metodlar tavsiya qilinadi:

1. Milliy mentalitetni hisobga olish . Ushbu metod muloqotdagi xatolarni kamaytiradi va millatlararo qadriyatlar hurmatini oshiradi. Masalan: yaponlarda bilvosita to'g'ridan-to'g'ri "yo'q" demaslik bo'lsa, o'zbeklarda kattalar ko'ziga tik boqmaslik

2. Madaniy kontekstda til o'rganish. So'z va iboralar real hayotiy vaziyatlarda o'rgatiladi. Masalan: salomlashuv, kechirim so'rash va minnatdorlik bildirish shakllari. Yaponlarda salomlashish va minnatdorchilik bildirish お辞儀 (ta'zim qilish) bilan bog'liq bo'lsa, o'zbeklarda qo'lini ko'ksiga qo'yish bilan ifodalanadi

3. Maqollar, tez aytishlar, milliy xalq o'yinlari, milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, frazeologiya orqali o'rgatish. Masalan: o'zbek tilidagi maqollarni matnlarda qo'llab, uning mohiyatini tushuntirib berish va uni yapon tiliga tarjima qilish

4. Nutq odobi (etiketni) o'rgatish. Ushbu usulda rasmiy va norasmiy uslubda qachon, kimga, qanday gapirish kerakligi tushuntiriladi. Masalan: yapon tilidagi 尊敬

語 (sonkeigo) hurmat tili ya'ni kattalar, rahbarlarga hurmat shaklini qo'llab, o'ziga nisbatan 謙讓語 (kenjougo) kamtalik tilini qo'llash.

6. Autentik materiallardan foydalanish

Mazkur uslubda milliy reklama, film, yangiliklar va kundalik dialoglar asosida dars tashkil etish, madaniyatni jonli ko'rsatadi. Masalan: milliy reklamalarda issiq non, dasturxon atrofida oilaviy ovqatlanib o'tirgan roliklar; Yaponlarda esa sakura daraxtining gullashi, Fudziyama tog'i, onsen - issiq buloq suvi kabi roliklar;

7. Kontrastiv ya'ni taqqoslash metodi. Taqqoslash metodida o'rganilayotgan til madaniyati o'z madaniyati bilan solishtiriladi. Masalan: ovqatlanish madaniyati

Yaponlarda ovqatlanayotgan paytda ovoz chiqarib ovqat yeyish ovqani mazzali bo'lganini bildirs, o'zbeklarda ovqatni ovoz chiqarib yeyish uyat hisoblanadi; mehmon kutish odobi yaponlarda kelgan mehmonlarga 茶道 (chadou) ya'ni choy tayyorlash marosimi amalga oshirilsa, o'zbeklarda choyni uch marotaba qaytarib, qo'lni ko'ksiga qo'ygan holda uzatish mehmonga hurmat ko'rsatish hisoblanadi.

8. Kommunikativ-amaliy metod ya'ni dars mobaynida o'rganilgan bilimlarini amaliyotda sinash. Bu eng samarali metodlardan biri hisoblanadi, chunki dars jarayonida o'tilgan yangi so'zlar, atamalar hamda grammatikani darsdan so'ng amaliyotda qo'llab ko'rishi, yangi atamalarni eslab qolish imkonini beradi. Masalan: bugungi darsda mevalar va sabzavotlarni o'rgatilgan bo'lsa, darsdan so'ng talaba bilan birgalikda bozorga borib, o'rganilgan so'zlarni qo'llab ko'rish, sotuvchi-haridor dialogi orqali mavzuni yanada chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Lingvometodlar orqali talabalar tilni amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtirib, tilga va madaniyatga bo'lgan qiziqishi va hurmati oshadi, bu esa o'z navbatida ta'lim natijadorligini oshiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bugungi kunda xalqlar orasidagi madaniy, iqtisodiy va ta'lim tizimidagi aloqalar tobora kuchayib borayotgan davrda, chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Shu bois millatlararo hamkorlikni kuchaytirishda va madaniyatlararo almashinuvda yaponiyalik talabalarga lingvomadaniy yondashuv orqali o'zbek tilini o'qitish samarali metodika talab etadi. Yapon talabalariga o'zbek tilini o'rgatish nafaqat til o'rgatish jarayoni, balki ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlovchi jarayondir. Lingvomadaniy omillar ta'lim jarayonining mazmuni va mohiyatini boyituvchi, samaradorligi va interfaoligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Pedagogika va filologiya fanlari

doirasida lingvomadaniy yondashuvdan foydalanish talabalarning kommunikativ, madaniyatlararo va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Til o‘rgatish jarayonida madaniy kontekstni qo‘shish, milliy qadriyatlarni chiroyli tarzda namoyon qila olish va talabaning tilga va madaniyatni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish – zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi bo‘lgan jamiyat talablariga javob bera oladigan, madaniy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirish va o‘zbek tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishni oshirish, til hamda madaniyatni samarali o‘rgata olish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A. Pedagogik kompetensiya va innovatsion ta’lim. – Toshkent, 2019.
2. Byram M. Intercultural competence in education // Language Teaching. – 2020.
3. Hara Y. Modern Approaches to Japanese Language Teaching. – Tokyo: Meiji University Press, 2020.
4. Karimova Sh. Psixologik adbiyat qozumlamesine dair teorik bir deneme: Hakkâri öncesi Ferit Edgü öyküleri // Akademik Sosyal Araştırmalar Dergisi. – 2024. – T. 12, № 149. – B. 368–381. – DOI: 10.29228/ASOS.74952.
5. Kramsch C. Culture in language teaching // Applied Linguistics. – 2019.
6. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
7. Maslova V.A. Language and national mentality // Russian Linguistics. – 2018.
8. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2010.
9. Qodirov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
10. Safarov Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2017.
11. Safarov Sh. Lingvokulturologik yondashuvlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2021.
12. Sayfullayeva R. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2018.
13. Ter-Minasova S.G. Til va madaniyatlararo kommunikatsiya. – Moskva, 2008.
14. Vorobyov V.V. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2008.
15. Yo‘ldoshev B. Til va madaniyat munosabatlari. – Toshkent: Fan, 2015.